




AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING USULLARI DUNYO TAJRIBASI (ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA), O'ZBEKISTONDA USHBU SOHA ISTIQBOLLARI VA SOHANING HUQUQIY ASOSLARI

Sattorov Rasul Ural o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Harbiy-texnik instituti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada hozirgi kunda eng dolzarb bo'lgan axborotlarni turli tahdidlardan muhofaza qilish usullari jahon tajribasi Rossiya Federatsiyasi misolida ko'rsatib berilgan bo'lib, O'zbekistonda axborot xavfsizligi sohasining bugungi holati, yaqin yillardagi soha istiqbollari va ushbu soha faoliyatining mamlakatimizdagi huquqiy jihatlar haqida keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar:

Huquqiy usul, tashkiliy va texnik usul va iqtisodiy usul, axborot xavfsizligini ta'minlash markazi,

So'ngi yillarda insoniyatning axborotga, xususan unga egalik qilishga bo'lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda. Zero axborotga egalik qilish bu bitta hokimiyatga, uni boshqara olish esa bu ikkita hokimiyatga egalik qilish degani edi. Turli noqonuniy guruxlar va yovuz maqsadlarni ko'zlagan turli tashkilotlar, shaxslar esa o'z maqsadlariga erishish uchun kerak bo'lgan axborotlarni har qanday yo'l bilan bo'lmasin topishga intilishi esa bugun hammamizga kundek ayon bo'lib turgan holatdir. Demak axborotni himoyalash bu ta'bir joiz bo'lsa kun tartibidagi eng dolzarb masalalardan biridir.

Axborot kommunikatsiyalar texnologiyalarining ommaviy ravishda qog'ozsiz avtomatlashtirilgan asosda boshqarilishi sababli axborot xavfsizligini ta'minlash murakkablashib va muhimlashib bormoqda. Shuning uchun ham avtomatlashtirilgan axborot tizimlarida axborotni himoyalashning yangi zamonaviy texnologiyasi paydo bo'lmoqda. Birgina statistik ma'lumot DataQuest kompaniyasining ma'lumotiga ko'ra, 1996—2000 yillarda axborot himoyasi vositalarining sotuvdagi hajmi 13 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan. Ushbu raqamlar hozirgi kunda bir necha barobar o'sganligini kuzatishimiz mumkin.

Biz endi jahon tajribasi sifatida fan texnika, telekommunikatsiya taraqqiyotida dunyoda yetakchi mamalakatlardan biri bo'lgan Rossiya Federatsiyasining tajribasidan qisqacha ma'lumotlar keltirib o'tamiz. Rossiya Federatsiyasining axborot xavfsizligini ta'minlashning umumiy usullari **huquqiy, tashkiliy-texnik va iqtisodiy usullar bo'linadi**.

Huquqiy usullar -Rossiya Federatsiyasining axborot xavfsizligini ta'minlash axborot sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni va Rossiya Federatsiyasining axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha me'yoriy-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Shuningdek Rossiya Federatsiyasining axborot xavfsizligi tizimini yaratish va takomillashtirish, federal qonunchilikdagi ichki qarama-qarshiliklarni, Rossiya Federatsiyasi qo'shilgan xalqaro shartnomalar bilan bog'liq qarama-qarshiliklarni bartaraf etish maqsadida axborot xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

Rossiya Federatsiyasi ta'sis etuvchi sub'ektlarining federal qonunchilik hujjatlari va qonun hujjatlari o'rtasidagi ziddiyatlar, shuningdek Rossiya Federatsiyasining axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni belgilaydigan huquqiy normalarni konkretlashtirish va boshqa vazifalar bunga kiradi.

Tashkiliy va texnik usullarga quyidagilar kiradi:

- Rossiya Federatsiyasining axborot xavfsizligi tizimini yaratish va takomillashtirish;
- Federal ijro etuvchi organlar, Rossiya Federatsiyasi ta'sis sub'ektlari ijro etuvchi organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyatini kuchaytirish, shu jumladan axborot sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga yo'l qo'ymaslik, shuningdek ushbu sohada jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni aniqlash, fosh etish va jinoyi javobgarlikka tortish;
- axborotni himoya qilish vositalarini ishlab chiqish, ulardan foydalanish va takomillashtirish va ushbu vositalar samaradorligini nazorat qilish, xavfsiz telekommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish, maxsus dasturiy ta'minotning ishonchliligini oshirish;
- Qayta ishlangan ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish va ma'lumotlarning yo'q qilinishini, buzilishini keltirib chiqaradigan maxsus ta'sirlarni oldini olish uchun tizimlar va vositalarni yaratish, shuningdek, axborotlashtirish va aloqa tizimlari va vositalarining muntazam ishlash rejimlarini o'zgartirish; Axborot va telekommunikatsiya tizimlarining normal ishlashiga tahdid soladigan texnik qurilmalar va dasturlarni aniqlash, ushlanishning oldini olish texnik kanallar orqali axborot, uni saqlash, qayta ishlash va aloqa kanallari orqali uzatish paytida ma'lumotlarni himoya qilishning kriptografik vositalaridan foydalanish, axborotni muhofaza qilish bo'yicha maxsus talablarning bajarilishini nazorat qilish;
- Axborot xavfsizligi vositalarini sertifikatlash, davlat sirini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash, axborot xavfsizligi usullari va vositalarini standartlashtirish;
- Axborot xavfsizligi talablariga muvofiq telekommunikatsiya uskunalari va avtomatlashtirilgan axborotni qayta ishlash tizimlari uchun dasturiy ta'minotni sertifikatlash tizimini takomillashtirish;
- Muhofaza qilinadigan axborot tizimlarida xodimlarning harakatlarini nazorat qilish, Rossiya Federatsiyasining axborot xavfsizligini ta'minlash sohasida kadrlar tayyorlash; jamiyat va davlat hayoti va faoliyatining eng muhim sohalarida Rossiya Federatsiyasi axborot xavfsizligi ko'rsatkichlari va xususiyatlarini kuzatish tizimini shakllantirish.

Iqtisodiy usullarga quyidagilar kiradi:

- Rossiya Federatsiyasining axborot xavfsizligini ta'minlash dasturlarini ishlab chiqish va ularni moliyalashtirish tartibini belgilash;
- axborotni muhofaza qilishning huquqiy va tashkiliy-texnik usullarini amalga oshirish bilan bog'liq ishlarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, jismoniy va yuridik shaxslarning axborot xatarlarini sug'urtalash tizimini yaratish. Rossiya Federatsiyasining iqtisodiy sohadagi axborot xavfsizligini ta'minlash Rossiya Federatsiyasining milliy xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Albatta globallashtirish jarayoni davom etar ekan axborot xavfsizligini ta'minlash eng murakkab va eng muhim sohalardan biri bo'lib qolaveradi xususan mamalatimiz O'zbekiston uchun ham. Chunki umumjahon axborot globallashtirish jarayonlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini nafaqat mamlakatlar iqtisodiyoti va boshqa sohalariga joriy etish, balki axborot tizimlari xavfsizligini ta'minlashni ham taqozo etayotir. O'zbekiston axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xalqaro xavfsizlik tizimiga Markaziy Osiyoda

birinchilardan bo'lib qo'shilgani mamlakatimiz ushbu sohaga jiddiy e'tibor qaratayotganining isboti sifati keltirish mumkin.

O'zbekistonda Axborot xavfsizligini vazifasini bajarish uchun O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi huzuridagi **Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi** tashkil etilgan bo'lib, mazkur markazning asosiy maqsadi etib, «Elektron hukumat» tizimining axborot tizimlari, resurslari va ma'lumotlar bazalarining, shuningdek Internet tarmog'i milliy segmentining axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, davlat organlari tizimlari va axborot resurslarida axborot xavfsizligini ta'minlash belgilangan.

Markaz xodimlari axborot xavfsizligiga hozirgi vaqtdagi tahdidlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va to'plash bilan shug'ullanadilar, «Elektron hukumat» tizimi axborot tizimi, resurslari va ma'lumotlar bazalariga noqonuniy kirib olish holatlarining oldini olishni ta'minlaydigan tashkiliy va dasturiy-texnik yechimlarni samarali qabul qilish bo'yicha tavsiyalar va takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadilar.

«Elektron hukumat» tizimi axborot xavfsizligini ta'minlashning me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha takliflarini ishlab chiqish ham Markazning maqsad-vazifalari hisoblanadi.

O'zbekistonda muhtaram prezidentimizning shaxsan tashabbuslari bilan, tashkil topgan Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi ham, so'ngi yillarda axborot xavfsizligini ta'minlash borasida quyidagi vazifalarni bajarib kelmoqda:

- Ma'lumotlar uzatish, telekommunikatsiya tarmoqlari, teleradioefir hamda axborot tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlashni takomillashtirish va rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini yuritish;
- Axborot xavfsizligiga oid qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlarining yaratilishini tashkil qilish va bunda ishtirok etish;
- Axborot tizimlari komplekslari, resurslari va ma'lumotlar bazalarining axborot xavfsizligini ta'minlash;
- davlat organlarining axborot tizimlari va resurslari axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishga ko'maklashish;
- davlat axborot tizimlari va resurslarining axborot xavfsizligini ta'minlash yuzasidan monitoring natijalari to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasiga belgilangan tartibda taqdim etish;
- telekommunikatsiyalar tarmoqlarining operatorlari va provayderlari bilan hamkorlik qilish, davlat organlarining kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish sohasidagi qonun buzilishlarining oldini olish masalalari bo'yicha birgalikdagi ishlarini tashkil etish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish;
- Internetning milliy foydalanuvchilarini Internet tarmog'i milliy segmentida axborot xavfsizligiga paydo bo'layotgan tahdidlar to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilish, shuningdek axborotlarni muhofaza qilish bo'yicha konsultatsiya xizmatlari ko'rsatish;
- qonun buzuvchilarni tahlil qilish, identifikatsiyalashda, axborotlar makonidagi ruxsatsiz yoxud buzuvchi harakatlarni amalga oshirishda foydalaniladigan metodlar va vositalarni tahlil qilishda huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qilish;
- Internet tarmog'i milliy segmentida axborot xavfsizligi hodisalarining oldini olish bo'yicha o'zaro amaliy ishlarni tashkil etish maqsadida axborot xavfsizligi sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Albatta biror soha mavjud ekan uning yuridik asosi, uning faoliyatini tartibga solib turuvchi ma'lum bir normativ huququiy hujjatlar mavjud bo'lishi kerak. O'zbekistonda ushbu sohada davlat tizimi ish yuritishini quyidagi qonun, me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiradi:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- "Davlat sirlarini saqlash to'g'risida" gi qonun;
- "Axborotlashtirish to'g'risida" gi qonun;
- "Maxsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida" gi qonun
- "Faoliyat ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida" gi qonun
- "Standartlashtirish to'g'risida" gi qonun
- "Aloqa to'g'risida" gi qonun
- "Telekommunikatsiyalar to'g'risida" gi qonun
- "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida" gi qonun
- "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida" gi qonun
- "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida" gi qonun;
- "Elektron raqamli imzo to'g'risida" gi qonun;
- "Elektron tijorat to'g'risida" gi qonun
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- Axborotni muhofaza qilish sohasidagi vazirlik, muassasa, agentlik va xo'jaliklarning boshqa huquqiy aktlari.

Axborot xavfsizligini ta'minlashning huquqiy jihatlariga chuqurroq kiradigan bo'lsak quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tishimiz mumkin:

O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida" gi Qonuni. Ushbu qonun, axborot xavfsizligi sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganligini bildiradi. Shuningdek shu o'rinda bir ma'lumotni keltirib o'tishi joiz, shaxsning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

— shaxsning axborotdan erkin foydalanishi uchun zarur sharoitlar va kafolatlarni yaratish;

— shaxsning shaxsiy hayotiga taalluqli sirlarini saqlash;

— shaxsni axborot vositasida qonunga xilof ravishda ruhiy ta'sir ko'rsatilishidan himoya qilish.

2007-yilda "Axborotlashtirish va ma'lumotlar uzatish sohasida qonunga xilof harakatlar sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Mamlakatimizda ushbu qonun qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, fuqarolar, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligini buzish bilan bog'liq qilmishlar uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik normalari takomillashtirildi. Shaxsning axborot xavfsizligiga daxl qilganlik uchun javobgarlik normalarini qo'llash axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki axborotlar xavfsizligini ta'minlash bugungi kunda har bir davlat uchun eng dolzarb sohaga aylanib ulgurgan va bu sohadagi faoliyat tizimini har qaysi mamlakat o'z texnik imkoniyatlari va o'zi ishlab chiqqan huquqiy me'yorlar asosida amalga oshiradi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Akademiyasi "Axborot xavfsizligi asoslari" (ma'ruzalar kursi) Toshkent -2013 yil 123-bet.
2. Lex.uz elektron huquqiy baza
3. Источник: <https://newtravelers.ru/uz/bluetooth/sposoby-organizacii-sistemy-informacionnoi-bezopasnosti-metody-i-sredstva.html>
4. <http://uz.infocom.uz/2007/04/04/axborot-xavfsizligini-taminlashning-meyoriyhuquqiy-asosini-yaratish/>
5. <https://fayllar.org/axborot-xavfsizligi-tushunchasi-va-axborot-xavfsizligini-tamin.html>